

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, Tarix fanlari nomzodi,  
Mirzaqulov Beshim Tangriyevich taqrizi ostida**

**Berdiyeva Gulmira Aminovna**  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti,  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi.  
Email: [berdiyevagulmira@gmail.com](mailto:berdiyevagulmira@gmail.com)  
ORSID ID: 0009-0008-1529-0086

---

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA DUNYOVIY VA DINIY QADRIYATLARNING  
BARKAMOL INSONLARNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Dunyoviy va diniy qadriyatlar mushtarakligini ifoda etuvchi ma’naviy tarbiya asosida mamlakatimizdagi turli diniy e’tiqod va maslakdagi fuqarolar uchun Vatan yagonaligi g‘oyasini ilgari surish, inson va jamiyat, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish zamirida jamiyatni birlashtirish, barqarorlashtirish imkoniyatlari mujassamdir. Dunyoviy va diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzida insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a’zolariga munosabatini namoyonligi tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Dunyoviy va diniy qadriyatlar, inson, jamiyat, ma’naviy hayot, barkamol inson.

**Annotasiya:** В данной статье на основе духовного воспитания, выражающего общность светских и религиозных ценностей, для граждан разных религиозных убеждений и профессий в нашей стране пропагандировать идею единства Родины, сплотить общество под принцип гармонизации отношений между человеком и обществом, гражданином и государством. Возможны варианты стабилизации. Светские и религиозные ценности считаются неотъемлемой частью человеческой психики, в едином ключе анализируется проявление отношения человека к жизни, обществу и членам общества.

**Ключевые слова:** Светские и религиозные ценности, человек, общество, духовная жизнь, совершенная личность.

**Annotation:** In this article, on the basis of spiritual education expressing the commonality of worldly and religious values, for the citizens of different religious beliefs and professions in our country, to promote the idea of the unity of the Motherland, to unite the society under the principle of harmonizing the relations between man and society, citizen and state, Stabilization options are available. Secular and religious values are considered an integral part of the human psyche, and the manifestation of a person's attitude to life, society, and society members is analyzed in a common way.

**Key words:** Secular and religious values, man, society, spiritual life, perfect person.

**KIRISH:** Diniy va dunyoviy qadriyatlarda bag‘rikenglik g‘oyasiga tayangan O‘zbekistonda xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan turli millat vakillari hamjihat bo‘lib, bir zaminda yashab, mehnat qilib kelayotgan bir vaqtda “dunyoviylik” tamoyilini to‘g‘ri anglash, jamiyat, davlat va din orasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash masalasi nihoyatda dolzarb.

Ma’nan va jismonan yetuk yoshlarni tarbiyalash masalasi bugungi O‘zbekiston uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat’iylik bilan davom ettirish mazkur sohadagi asosiy mezonga aylandi. Bu borada jamiyatni doimiy harakatga keltirib turadigan kuch-milliy g‘oya, milliy manfaatga xizmat qiladigan qadriyatlarni, ilg‘or demokratik qoida va tushunchalarni aniq-ravshan tasavvur etish, ularni o‘rganish, borini asrab-avaylash, boyitish, rivojlantirish, xalqni, avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ana shu bilim va ko‘nikmalar bilan tarbiyalash-ma’naviy tarbiya sohasidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi.

**MATERIALLAR VA USLUBLAR:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoniga muvofiq ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash maqsadida:

– “jaholatga qarshi ma’rifat” ulug‘vor g‘oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish;

– islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

– jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

– diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini rivojlantirish asosida ta’lim sifatini oshirish kabilar sohaning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi.

Yoshlar bu jamiyatdagi ijtimoiy-demografik guruh hisoblanib, ular ayrim umumiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi: jumladan zamonaviylik va bilimlilik; yangi kasblar va yangicha turmush tarziga intiluvchanlik; ijtimoiy jihatdan harakatchanlik va boshqalar. Yoshlarda qadriyatlarni qayta baholash kattalarga nisbatan o‘zgacharoq, ya’ni ularda ehtiyojlar va ideallar, axloqiy me’yorlar faol o‘zlashadi. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida ta’lim turini tanlash va uni egallash, mehnat jarayoniga kirish, oilani shakllantirish, kasbiy jihatdan o‘shish va xizmat bo‘yicha ilgariylash kabilar asosiy muammolardan bo‘lib hisoblanadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR:** Bizga ma’lumki tarbiya-avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta’siri ostida jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol insonni shakllantiruvchi va takomillashtirishuvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. Yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha bu- ma’naviy tarbiyadir. Ma’naviy tarbiya keng ma’noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini ifodalaydi. Har qanday ma’naviy tarbiya dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligida olib borilsa, bu jarayonda shaxsning nafaqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki unda ma’naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi ham tezlashadi. Albatta, bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularni dunyoviy va diniy qadriyatlardan uzluksiz boxabar qilib borish, bu qadriyatlarning inson, jamiyat taraqqiyotidagi mushtarak, garmonal o‘rni beqiyosligini anglab yetish o‘rinlidir. Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, madaniy hayotidagi eng dolzarb masalalardan biri yoshlarni dunyoviy va diniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ertangi kunimizning haqiqiy vorislari sifatida kamol toptirishdir. Dunyoviy va diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzida insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a’zolariga munosabatini namoyon qiladi. Dunyoviy va diniy qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatib, gohida ideal sifatida kishilarni samarali faoliyatga undasa, gohida ma’naviy mezon, axloqiy talab, qonun-qoida sifatida odamlarning hatti-harakatlari va turmush-tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi. Ularning faoliyatlarini boshqarib yoki yo‘lga solib turadi, ya’ni regulativ funksiyasini bajaradi. Dunyoviy qadriyatlar ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odati, an’analarini, jamiyatning moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Dunyoviy qadriyatlarga o‘rta asr allomalarimizning asarlarida ifoda etilgan adolatli jamiyat, komil inson, tinchlik va farovonlik g‘oyalari ham kiritish mumkin.

Diniy qadriyatlar diqqat markazida inson va insoniylik masalasi asosiy o‘rin tutadi. Xususan, Avestoda inson ma’naviyati va amaliy faoliyatiga katta urg‘u berilgan. Asarda yaxshilik, yorug‘lik, barkamollik, ezgulik, hurfikrlilik, eng ustivor qadriyatlar sifatida talqin qilingan. Insonlarning yaxshilik, yorug‘lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni nohaqlikdan farqlab olishi, yaxshilik uchun kurashda befarq bo‘lmasligi, yashash tarzida, ma’naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida “ezgu fikr”, “ezgu so‘z” va “ezgu ish”ida o‘z ifodasini topgan.

Tasavvuf ta’limotida insoniylik bosh masala hisoblanadi. U inson qalbini tarbiyalashga, komil insonni takomillashtirishga alohida urg‘u beradi. Xususan, Ahmad Yassaviyning “Devoni Xikmat”ida ma’naviy qadriyatlar asosiy shakllari poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, xushhulqlik, beozorlik, xokisorlik

kabi xislatlarning ta’rifi berilgan. Naqshbandiya ta’limotidagi kamtarinlik, saxiylik, bag’rikenglik, mehr-shafqat, xayri ehson, o’zaro yordam, do’stlik va birodarlik, tenglik va totuvlik, sofdillik, mehnatsevarlik, poklik, odillik va bilimdonlik kabi ilgari surilgan g’oyalar o’z mazmuni va mohiyati bilan umuminsoniy xarakterga ega bo’lib, dunyoviy qadriyatlar tizimida ham o’zining nazariy va amaliy ahamiyatiga ega. Shuning uchun ham islom ta’limotining mohiyatini, uning insonparvarlik, tinchliksevarlik, mo’tadillik va ma’rifatparvarlik xususiyatlarini yoshlar o’rtasida targ’ib qilish orqali, barkamol avlodni tarbiyalashda, dunyoviy va diniy qadriyatlarni yoshlarga singdirishda islom dini omilidan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun avvalo, inson o’zi ruhan va vijdonan pok, halol, iymonli, e’tiqodli, ilmi bo’lishi kerak, degan g’oya islom dinining o’zagini tashkil etadi. Bugungi kunda odob-axloq borasidagi dunyoviy va diniy qadriyatlarga rioya etish, jamiyatning barcha a’zolarini chin samimiyat asosida hurmat qilish, vijdonli, insofli, halol bo’lish, millat, jamiyat, davlat manfaatlarini unutmagan holda fidoyilik bilan mehnat qilish, insonni ulug’lash, qadriyatlarni o’rganish va ularga amal qilish, hurmat qilish, hayotga tatbiq etish, ta’lim-tarbiya jarayonini mazkur qadriyatlarga asoslanib amalga oshirishni davr taqozo etadi. Zero yoshlar chin ma’noda dunyoviy va diniy qadriyatlardan qanchalik ko’p saboq olsa, ularga ishonsa va ularga amal qilsa, yoshlarning tafakkuri shunchalik boyib, ma’naviy barkamolligi yuksalib boradi. Biz buni dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg’unligiga to’la amal qilib, IX-XII asrlarda ilk, XV-XVI asrlarda so’nggi Sharq uyg’unlash davrini vujudga keltirgan buyuk ajdodlarimiz faoliyatida ko’ramiz. Dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg’unligida tarbiya topgan yoshlar adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik ruhini, taraqqiyot yo’lidagi olijanob maqsad-muddalarni teran anglab yetib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilishadi. Ularda hurfikrlilik, mutelik va jur’atsizlikdan xoli bo’lgan, bilimi va kuchiga ishonib yashash, o’zining mustaqil qarashlariga ega bo’lish fazilatlarini kuchayadi va bu mushtaraklik davlatimizdagi turli millat va din vakillarining erkin faoliyati, hamjihatligi, haq-huquqlarini kafolatlaydi. Dunyoviy va diniy qadriyatlar mushtarakligini ifoda etuvchi ma’naviy tarbiya asosida mamlakatimizdagi turli diniy e’tiqod va maslakdagi fuqarolar uchun Vatan yagonaligi g’oyasini ilgari surish, inson va jamiyat, fuqaro va davlat o’rtasidagi munosabatlarni uyg’unlashtirish zamirida jamiyatni birlashtirish, barqarorlashtirish imkoniyatlari mujassamdir. Shu tariqa turli e’tiqodlar, xilma-xil qarashlar va munosabatlarni uyg’unlashtirish konsepsiyasini asoslashga yo’l ochiladi. Bunda jamiyatni barqarorlashtirish masalasi insonning ma’naviy-ruhiy yetukligi va komilligi bilan bog’liq holda tushuniladi. Vijdon erkinligi, insonlarning irqi, millati, dini, nasl-nasabi, jinsidan qat’i nazar, o’zaro tengligi ta’minlangan, umuminsoniy g’oyalar asosiy mezon bo’lib insonlar hayotiga singib borayotgan hozirgi davrda dunyoviy va diniy qadriyatlar o’zining tub mohiyatini saqlagan holda, odamzot hayoti, baxtu saodati, tarbiyasi, ma’rifatida bir so’z bilan aytganda, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida g’oyat muhim o’rin tutadi. Diniy bag’rikenglik g’oyasiga tayangan davlatimizda xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo’lgan turli millat vakillari hamjihat bo’lib, bir zaminda yashab, mehnat qilib kelmoqda. Bu esa kishilarning bir zamin, bir Vatan uchun, olijanob g’oya va niyatlar yo’lida hamkor va hamjihat bo’lib yashashini anglatadi. butun jamiyat a’zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, mustaqil O‘zbekistonda voyaga yetayotgan har bir yoshni ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, imon-e’tiqodi butun, milliy g’oya bilan qurollangan, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalashda, ongu tafakkurini rivojlantirib, hayotga, mehnatga, mulkka munosabati tubdan o’zgartirishda, o’z fuqarolik burchini chuqur anglab, Vatanga muhabbat va sadoqat, daxldorlik tuyg’usi bilan yashashida, o’z taqdirini Vatani taqdiri bilan mushtarak deb his qilishida asrlar osha yurtimizda yashab kelayotgan dunyoviy-diniy qadriyatlarining o’rni beqiyos.

Dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg’unligi haqidagi fikrlarni professor Tilab Mahmudning: “Inson ma’naviy olamining yaxlitligi va butunligiga erishmoq ayni saodatdir. Parchalanish, bo’linish-nurash alomatidir. Qaerda uyg’unlik va mutanosiblik bo’lsa, shu yerda ishonchli taraqqiyot va go’zal xulq chechaklari gullaydi. Inson dilidagi esankirash, shubha va gumon ma’naviy parokandalikka olib keladi”, degan purma’no so’zlari bilan xulosalaymiz. Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg’unligidagi me’yorlarning buzilishi diniy va dunyoviy qadriyatlar qadsizlanishiga, ya’ni odamlarning axloqiy va aksiologik jihatdan tanazzulga uchrashga olib keladi.

Shuningdek yoshlarda zamonaviy tafakkurni tarbiyalashda dunyoviy va diniy qadriyatlar omilining ahamiyatini oshirish usullari va ilg’or tajribalarini aniqlash, ularni takomillashtirish zarur.

**Adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси// <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъиятбиландавом эттириб,янгибосқичгақўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 24.
3. Матъязова Н.С. Комил инсон тарбияси: маънавият ва маърифат уйғунлиги // Молодой ученый, 2017. № 16.2 (150.2). – С. 30-32.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2022.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvi. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz).
6. Автономов А.С. Правовая онтология. Москва. 1999.